

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА ЗАМОНАВИЙ РАХБАРЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИ ВА УНИНГ МУХИМ ЖИАТЛАРИ

Imomnazarova Ro‘zixon Tursunovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani 10-son DMTT direktori

Annatatsiya: ushbu maqolada zamonaviy rahbarning kasbiy kompetentligi oshirish, ta’lim jarayonlarini boshqarish va uning muhum jihatlari haqida aytib o’tilgan.

Аннотация: в данной статье говорится о повышении профессиональной компетентности современного руководителя, управлении образовательными процессами и ее важных аспектах.

Kalit so‘zlar: zamonaviy rahbar, kompitentlik, maktabgacha ta’lim, pedagoglar, tarbiyalanuvchilar, ta’lim jarayoni.

Ключевые слова: современный лидер, компетентность, дошкольное образование, педагоги, учащиеся, образовательный процесс.

Zamonaviy rahbar - ustoz, murabbiy, rahbar-millat tarbiyachisi, abadiyatga daxldor shaxs. Uning mashaqqatli mehnati o’larоq kelajagimiz vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e’tibor Vatan taqdiriga qaratilgan e’tibordir. “Davlat rahbarlaru fuqarolarning sadoqati va fidoiyligila qudratlidir”, - degan edi Amir Temur. Bundan tashqari respublikamizda rahbar xodimlar katta bo‘g‘inni tashkil etadi. Shuning uchun rahbar qay darajada milliy g‘oya va e’tiqod bilan qurollangan va uni anglab olgan bo‘lsa jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy g‘oya va e’tiqod qanchalik mazmunli, har bir rahbarning uzoqqa mo‘ljallangan maqsad va manfaatlari, kelajakda esa jamoaning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo‘lsa, uni kishilar shunchalik tez qabul qiladi. Va unga nisbatan ijobjiy munosabat shakllanadi. Shu tufayli rahbar o‘tkir hissiy bilish va intellektual qobiliyatlarini shakllantira borish, so‘z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq anglashi zarur.

“Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko‘p kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, o‘rni kelganda, zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbarlik tushunchasiga quyidagi ta’riflarni keltirish mumkin:

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi.

3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.

Zamonaviy boshqaruv bu maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarning tashkilot oldidagi burchi bu uning o‘zi boshqarayotgan tashkilotning rivojlanishida turli vaziyatlarda tashkilot tashqi omillarini tashkilot ichki omillariga, ya’ni pedagogik xodimlar, ta’lim texnologiyalar, ta’lim jarayonini rejalashtirish boshqarish mexanizmlarini erta anglay bilishi va shu asnoda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Prezidentimizning quyidagi berilgan fikrlari maqolamizning kirish qismida berib o‘tishni joiz topdik: “Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak. Boshqaruv boshqariladigan obyektdagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta’minlashi lozim. Boshqaruv o‘zining bu vazifasini bilishi kerak bo‘lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o‘rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta’minlovchi sharoit yaratish (rag‘batlantirish); jamoada umumiy kadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi. Tarbiya ishlarini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: - maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi; - faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi; - bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir. Tarbiya ishlarini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi: - Tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulqatvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir; - Tarbiya ishlarining maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish; - Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo‘lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariaga moslash, estetik talablarga javob berishi, Tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir. - O‘quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘quvchi yoshlarning faolligi ko‘p jihatdan ixtiyorilik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog‘liq; - Tarbiya ishlari ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo‘lishi. Tarbiya ishlarini rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobjiy xarakter kasb etadi. Tarbiya ishlari metodikasi yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g‘oyani singdirishda har

tamonlama ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqoroning ilm olishi, o'z qobiliyatlarini har tamonlama rivojlantirish ta'kidlanadi.

Tarbiya jarayoni- (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

- + tarbiyachi o'quvchi shaxsining tez rivojlanadigan davri – o'quvchilik yillarida uning ongiga turli faoliyat
- + o'qish
- + mehnat
- + ijtimoiy ishlar
- + o'yin
- + sport
- + badiiy havaskorlik

Zamonaviy rahbar psixologik-pedagogik, sotsiologik tadqiqotlarga tayangan xolda, bola shaxsini mukammal rivojlanishi uchun oilaning roli nihoyatda katta ekanligini anglab yetadi. Direktor ota-onalarning pedagogik madaniyatini muntazam oshirib borishi, bolalar tarbiyasida uchraydigan muammolarni bartaraf etishi, ular bilan faol hamkorlikni yo'lga qo'yishi, mazkur jarayonda ijtimoiy yordamga muxtojlik sezuvchi oilalar bilan alohida ish olib borishi maqsadga muvofiqdir. Direktor tarbiyachi bilan oilalarga ko'rsatadigan ijtimoy yordami uch asosiy xususiyatga egadir:

- 1) ta'limiy – ta'lim berish va tarbiyalash;
- 2) psixologik – ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ruhiy zo'riqishlardan himoya qilish;

3) vositachilik – tashkil etish, ta'lim va tarbiyada yuzaga keluvchi muammolarni oldini olish va bartaraf etish orqali bola xulq-atvorigagi og'ishlarni yoki fiziologik nuqsonlarni bartaraf etish hamda zurur axborotlar bilan ta'minash. Ana shu asosdan kelib chiqqan xolda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorning quyidagi kasbiy funksiyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin.

- 1) Ota-onalarning ma'rifiy bilimlarini oshirishda ishtirok etish;
- 2) Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirini boshqarish.

Shuningdek, Direktor o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. Xususan, quyidagi shartlarga amal qilish lozim:

Direktor yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli bo'lishi, kasbiy bilimlarni puxta egallab, zarur adabiyotlarni tanlay olishi, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or

tajribali pedagoglarning ish tajribalarini o‘rganib, o‘z ishiga tadbiq eta oladigan shaxs bo‘lishi;

Xulosa shuki: Direktor kuzatuvchanlik qobilyatini yaxshi egallagan, bolalarni xulq-atvori, hatti-haraktalarini tahlil etib, bolaga ijobiylarini etuvchi voitalarni topa oladigan bo‘lishi, direktor muntazam ravishda ota-onalar bilan individual va jamoaviy suhabatlar, uchrashuvlar o‘tkazishi, ularni bolalarni tarbiyalashga doir zamonaviy uslublar bilan tanishtirib borishi lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sod “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 aprelda PQ-4296-sonli “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 mayda PQ-4736-sonli “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
5. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi sayti.
6. bolahuquqi.uz sayti.